YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA REKULTIVATSIYALASHDAN SO‘NG G‘O‘ZA EKILGANDAGI IQTISODIY KURSATGICHLAR

Reymov Omirbay Nietbaevich
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xo‘jaligi va yerdan foydalanish» kafedrasi assistent o‘qituvchisi.
omirbayreymov9@gmail.com
Bekbergenov Zamir Amangeldi ulı
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining yer tuzish va yer kadastri tálim yunalishi 2 bosqich talabasi,
Reimov Nietbay Baynazarovich
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xo‘jaligi va yerdan foydalanish» kafedrasi professori, «Don va sholi» ilmiy ishlab chiqarich birlashmasi direktorining fan, tadqiqot va innovatsiyalar bo’yicha maslahatchisi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori.
nietbajreimov6@gmail.com

imrconf.com

İzoh *– Дала тажрибаси асосида Orol boyida joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida ерлардан самарали фойдаланишда ерларни рекультивациялашнинг ва кейин ғўза экилгандаг иқтисодий самарадорлиги ҳақида хулоса қилинади.*

Annotasiya. - На основе полевого опыта делается вывод об экономической эффективности рекультивации земель и последующего посева хлопчатника при эффективном использовании земель в Республике Каракалпакстан, расположенной в Приаралье.

Annotation *– Based on field experience, a conclusion is drawn regarding the economic efficiency of land reclamation and subsequent cotton cultivation*

for the efficient use of land in the Republic of Karakalpakstan, located in the Aral Sea region.

Kalit so'zlar *– Orol boyi, Qoraqalpog'iston,yerlar, samarali foydalanish, rekultivatsiya, kadastr,g'o'za, xalq xo'jaligi, paxta tolasi, inson, qishloq xo'jaligi, hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik.*

Ключевые слова *– Приаралье, Каракалпакстан, земли, эффективное использование, рекультивация, кадастр, хлопчатник, народное хозяйство, хлопковое волокно, человек, сельское хозяйство, урожайность, экономическая эффективность.*

Keywords: *Aral Sea region, Karakalpakstan, lands, effective use, reclamation, cadastre, cotton, national economy, cotton fiber, human, agriculture, productivity, economic efficiency.*

imrconf.com

Kirish va mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida, jumladan Qoraqalpog'istonda har xil sabablar bilan faol foydalanishdan chiqib ketgan va har xil sabablar bilan buzilgan yerlar maydoni oshib bormaqda. Ushbu masala bo'yicha Respublikada har xil sabablar bilan faol foydalanishdan chiqib ketgan va har xil sabablar bilan buzilgan yerlar maydonlarini aniqlash va uni qayta faol foydalanishga kiritish masalasi hozirgi vaqtning dolzarb masalasi hisoblanadi. Yerlar rekultivatsiyalash orqali qayta foydalanishga kiritilgandan sung unga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilib, yerlar oborotda turishi, tuproq unumdorligi saqlanishi va oshirilib borishi hamda ushbu yerlar iqtisodiy foyda keltirishi kerak.

Tajribada qo'llanilgan uslublar va materiallar. Tajribada asosan dala tadqiqoti qo'llanilib, laboratoriya-analitik, ma'lumotlarni umumlashtirish, geoaxborot tizimlari asosidagi fazoviy tahlil va modellashtirish uslublari tashkil etadi.

Tadqiqot uslublari ilmiy tadqiqotning dala, laboratoriya va kameral ishlari «Metodika polevix opitov s xlopchatnikom v oroshayemix usloviyax»,

«Metodi agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnix xlopkovix rayonax», YE.V.Arinushkina [2.10; 5-450-b.,] ning «Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochv» qo‘llanmalarida keltirilgan uslublar va «Paxtachilikda ma’dan va mahalliy o‘g‘itlarni qo‘llash» nomli tavsiyalar asosida olib borildi. Hosildorlikni aniqlash, olingan ma’lumotlarni variatsion statistik tahlil qilish, o‘rtacha hosil qiymati, ekinlar hosili bilan tuproq xossalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar B.A.Dospexovning «Metodika polevogo opita» [2.35; 9-351-b.] uslubiy qo‘llanmasi va Microsoft Excel dasturlari asosida bajarilgan.

Tajriba natijalari. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suv yetishmovchiligi, sho‘r tuproq, keskin iqlim sharoyatında yerlarni rekultivatsiyalashning keyingi ekilgan ǵo’zaning iqtisodiy samarodorligin aniqlash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasinda bir gektar yerda hisobli maydon hisobida g‘o‘za o‘stirishda chiqimlarni hisoblap hisob sanoq ishlari yurgizildi. Bunda yerlarni rekultvatsiyalashning iqtisodiy samarodorligin quyidagi ko‘rsatkishlarga asoslanib hisobladik. Rekulitivatsiyalashning variantlar boyicha hosildorlik miqdorlari, bajarilgan ishlar baholari, har bitta variant mahsulotining uziga tan bahosi, sof foyda va ishlab shiqarishning rentabelligi va boshqalar.

Iqtisodiy samarodorlikni aniqlash uchun moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan va bozor baholari boyicha hisob sanoq ishlari ishlandi.

Bajarilgan tadbirlar orasida oddiy rekultivatsiya ishlangan, yani qo‘shimcha tadbirlar o‘tkazilmagan variantda g‘o‘zadan tajriba qaytariqlari boylab gektariga o‘rtacha 24,6 sentner hosil olindi. G‘o‘zaning S-4727 navini qo’shimcha o‘g‘itlarsiz ekib, olingan 24,6 sentner g‘o‘za hosilini sotishdan kelib tushgan pul 15 million 252 ming so‘mga teng bo‘ldi. G‘o‘zani o‘stirish vaqtidagi jami xarajatlar – amal davridagi xarajatlar, mexanizatsiyalashtirish ishlari, sug‘orish xarajatlari, urug‘, o‘g‘it narxlari va boshqa da xarajatlar -

imrconf.com

11 million 327 ming 446 so‘mga teng bo‘lib, sof foyda 3 million 425 ming so‘mga va rentabellik darajasi 28,9 % ga teng bo‘ldi

Tajribaning ikkinchi variantida, yangi qurigan o‘t sho‘plar maydalanib kumilgan va rekultivatsiya ishlangan variantda g‘o‘zadan tajriba qaytariqlari boylab gektariga o‘rtacha 25,8 sentner hosil olindi. G‘o‘zaning S-4727 navini qushimcha o‘g‘itlarsiz ekib, olingan 25,8 sentner g‘o‘za hosilini sotishdan kelib tushgan pul 15 million 996 ming so‘mga teng bo‘ldi. G‘o‘zani ustirish vaqtidagi jami xarajatlar – amal davridagi xarajatlar, mexanizatsiyalashtirish ishlari, sug‘orish xarajatlari, urug‘, o‘g‘it narxlari va boshqa da xarajatlar - 12 million 47 ming so‘mga teng bo‘lib, olingan sof foyda 3 million 949 ming so‘mga va rentabellik darajasi 32,8 % ga teng bo‘ldi.

Tajribaning uchinshi variantida rekultivatsiya vaqtida gektariga 30 t/ga hisobidan gung berilgan variantda g‘o‘zadan tajriba qaytariqlari boylab gektariga o‘rtacha 28,3 sentner hosil olindi. Olingan sof foyda 4 million 666 ming sumga va rentabellik darajasi 36,2 % ga teng bo‘ldı.

Tajribaning to‘rtinshi variantida, yani rekultivatsiya ishlangan, gektariga 30 t/ga hisobidan gung berilgan va 300 kg fizik vaznda ammofos berilgan variantda g‘o‘zadan tajriba qaytariqlari boylab gektariga o‘rtacha 31,7 sentner hosil olindi.

G‘o‘zaning S-4727 navini hosilini sotishdan kelib tushgan pul 19 million 654 ming sumga teng bo’ldı. G‘o‘zani farvarishlash vaqtidagi jami qarajatlar – amal davridagi qarajatlar, mexanizatsiyalashtirish ishlari, sug‘orish qarajatlari, urug‘, o‘g‘it narxlari va boshqa da qarajatlar - 13 million 880 ming sumga teng bo‘lib, olingan sof foyda 5 million 774 ming sumga va rentabellik darajasi 41,6 % ga teng boldı.

Tajriba boylab olingan natijalar shuni ko’rsatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta faol foydalanishga kiritish uchun rekultivatsiya ishlarini olib borish maqsadga muvofiqligini tajrida aniq dalillandi.

imrconf.com

Oddiy rekultivatsiya ishlangan va boshqa qo‘shimcha tadbirlar o’tkazilmagan birinchi variantda g‘o‘zadan 15 million 252 ming so‘m daromad olinib, ushbu hosilni etishtirish uchun ishlatilgan jami qarajatlarni (11 million 827 ming so‘m) olib toshlaganda 3 million 425 ming so‘mga teng foyda olindi va rentabellik darajasi 28,9 % ga etdi.

O’rganilgan variantlar ichida rekultivatsiya ishlangandan sung gektariga 30 t/ga hisobidan gung berilgan va 300 kg fizik vaznda ammofos berilgan variantdan etishtirilgan hosil va olingan umumiy daromad 19 million 654 ming so‘mga va sof foyda 5 million 774 ming so‘mga teng boldi. Demak, ushbu daromadlar ushbu yilning uzida barcha qarajatlarni qoplaydi.

imrconf.com

Xulosalar

1. Qoraqalpog‘istonda yerlarni faol foydalanishda ushlab turish uchun yerlarning faol foydalanishdan chiqib ketish xavfining oldini olib, yerlarni faol foydalanishda ushlab turish maqsadga muvofiq.
2. Respublikada foydalanishdan chiqib ketgan yerlarning aniq maydanlarini aniqlash zarur va qayta foydalanishga kiritish zarur.
3. Foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta foydalanishga kiritilsa, ushbu yilning uzida o‘z qarajatlarini tuliq oqlaydi, atrof muxit tozaligi saqlanadi va Respublikamiz yer fondi hisobida turgan, lekin foydalanishdan chiqib ketgan yerlar qayta faol foydalanishda bo‘lib, ekologik tenglik saqlanadi.
4. O’rganilgan variantlar ichida rekultivatsiya vaqtida gektariga 30 t/ga hisobidan gung berilgan va 300 kg fizik vaznda ammofos berilgan variant eng yaxshi deb topildi. Olingan umumiy daromad 19 million 654 ming so‘mga va sof foyda 5 million 774 ming so‘mga teng boldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Reymov O.N., Reimov N.B. Yerlarni rekultivatsiyalashning zarurligi va rekultivatsiyadan keyingi ekilgan ekinlarning hosili bilan tuproq unumdorligiga ta’siri.// «Ўзбекистон замини-Земля Узбекистана- Lahd of Uzbekistan» илмий-амалий-инновацион журнали. 2026 йил 1 сон. 10-13 бетлар.

2. Reymov Omirbayning yillik hisobatlari.

imrconf.com